

**YURIY BREGEL TARJIMASIDAGI “FIRDAVS UL-IQBOL”****Otajanova Lola Ozodovna**

UrDU doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm tarixiy solnomalarining o'rganilishida Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari va Y.Bregelning tarixiy asar tarjimasi jarayonidagi ilmiy izlanishlari hamda asar tarjimasi borasidagi fikr-mulohazalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, tarixiy asar, ilmiy-tanqidiy matn, asliyat tili va tarjima tili.

Bugungi kunda tarjimada asliyatning o'ziga xosligi va tarixiylikining tarjimadagi ifodasi, bu jarayonda tarjimon mahorati, so'z tanlash masalasi ilmiy zarurat sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, “Firdavs ul-iqbol”ning chet tillarga tarjimasi, tarjima birliklarining asliyatga muvofiqligini ta'minlashda mutarjimning mahoratiga doir ilmiy tadqiqot ishlari monografik planda olib borilmagan. Bu asar tarjimasi, tarjimon metodi va mahorati masalalari, shuningdek, tarixiy-adabiy asar tarjimasining lingvokulturologik va lingvopoetik jihatdan o'rganish tarjimashunoslikning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, tarjimaning amaliy va nazariy qonun-qoidalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. “Firdavs ul-iqbol” solnomasi Ogahiy asarlari orasida eng ko'p nusxada saqlanib qolganidir. Uning 11 nusxasi bor. Asar 3 marta o'zbek kirill alifbosiga to'liq va Ogahiy qismigacha usmonli turk alifbosida chop qilingan¹”.

Asarning ingliz tiliga tarjimasi Yuriy Bregel tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ushbu tarixiy asarining ilmiy-tanqidiy matni 1972–1978-yillarda tayyorlangan va o'n yildan keyin – 1988-yilda nashr qilingan. Tarjima matni uchun “Firdavs ul-iqbol”

¹ Nazirova H. Xonlar alqagan muarrix. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.



asarining mavjud bo'lgan ikkita qo'lyozma varianti asos bo'lgan², asar tarjimasining kirish qismida bu haqda to'liq ma'lumot berib o'tiladi.

“Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni nashri noyob ma'lumotlarga to'la, hali fanimizda deyarli o'rganilmagan ingliz tilidagi so'zboshisi berilgan. Hajman noan'anaviy bo'lgan so'zboshi to'rt qismdan iborat bo'lib: birinchi qismi asar mualliflari Munis va Ogahiy ijodiy faoliyatini, ikkinchi qismi “Firdavs ul-iqbol” asarining mohiyati, uchinchisi asarning o'rganilishi va nihoyat, to'rtinchisi asarning qo'lyozma nusxalari xususiyatlarini ochishga qaratilgan³. Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, asarning 1999-yilgi ingliz tili nashridagi so'zboshisi esa besh qismdan iborat bo'lib, so'zboshining birinchi qismida Xorazm vohasi va yakuniy qismida asarning qo'lyozma nusxalari hamda nashrlari bilan birga, tarjimaga oid muammolar va ularni bartaraf qilishga oid jarayonlar ham batafsil yoritib o'tilgan⁴.

Y.Bregelning tarixiy asar tarjimasi borasidagi fikr-mulohasalari 1983-yil Milliy Gumanitar fanlar jamg'armasi (NEH) tomonidan ko'rib chiqildi va tarjimonning asar tarjimasi borasidagi qisqartirishlari jamg'arma tomonidan rad etilib, matn to'laligicha tarjimada berilishi so'raldi. Muhokamalardan keyin tarjimada asliyat ruhini saqlab qolish maqsadida badiiy-estetik jihatni ochib beruvchi ba'zi bir stilistik uslublar kitobxonga qisman bo'lsa ham, havola etilishiga qaror qilindi. Shu sababdan, tarjimon she'riy parchalardagi badiiy san'atlarni ba'zan to'liq, ba'zan tarjima tili me'yorlaridan kelib chiqqan holda tarjima qilishga erishgan. Quyida keltirilgan she'rda badiiy san'atlarning asliyat va tarjima tilidagi adekvatligini tahlil qilishimiz mumkin:

Asliyatda: “Oti ostida charxi volodek,

O'zi xurshidi olamorodek.

² Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Rizā Mīrāb. *Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm*/ edited by Yu.Bregel. – Leiden, 1988. – P.1281.

³ Xalliyeva G., Adambayeva N. Ogahiy ijodining Amerikada o'rganilishi. «Muhammad Rizo Ogahiyning O'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B.181.

⁴ Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Rizā Mīrāb. *Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm*/ edited by Yu.Bregel. – Leiden, 1988. – P.lxxvii-718.



Farqidin to qadam kirib zar aro,

Urubon g‘o‘ta bahri guhar aro”.(FI, 260)

Tarjimada: “He sat on the horse like the celestial dome,

And appeared himself like the sun which illumines the world.

He was arrayed in gold from head to foot,

And plunged into a sea of jewels”. (FI, 257)

Ushbu she‘riy parchada hukmdorning shikorga o‘tlanayotgan tasviri ifodalangan bo‘lib, unda asosan o‘xshatish san‘atini ko‘rishimiz mumkin. Asliyatda keltirilgan o‘xshatishlar volodek va olamorodek tarjima tilida like the celestial dome va like the sun which illumines the world tarzida ifodalangan bo‘lib, chog‘ishtirilayotgan tillardagi o‘xshatish badiiy san‘ati tarjimada adekvatlikni ta‘minlagan. Asliyatdagi musiqiylik va ohangdorlikni ta‘minlovchi misralarning a-a-b-b tarzidagi qofiyalanishi tarjima matnida saqlanmagan va natijada badiiy tasvir jozibasi hamda muallifning san‘atkorona ziynatlagan misralari tarjimada asliyatdagidek jaranglamagan. Biroq shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, pragmatik jihatdan tarjimon asliyatdagi badiiy tasvir vositasi orqali muallif ko‘zlagan maqsadini kitobxonga yetkaza bera olgan.

Asarning tili arabiy va forsiy iboralarga boy bo‘lgani va o‘ziga xos sharqona usulda yaratilgani bois ingliz tiliga tarjimasi oson kechmagan, albatta. Y.Bregel bu borada ko‘plab olimlar bilan bamaslahat ish olib borgan. Jumladan, tarjimon rus olimi Oleg Akimushkin (Rossiya fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti), professor Robert Dankoff (Chikago universiteti), doktor Irina Viktorovna Yerofeyeva (Tarix va etnografiya instituti, Olmata), professor Boris Litvinskiy (Sharqshunoslik instituti, Moskva), Aleksandr Naymark (Indiana universiteti), doktor Benno van Dalen (Geografiya instituti, Moskva), professor Devin Devis (Indiana universiteti) kabi sharqshunoslar unga juda katta yordam berganini mamnuniyat bilan eslaydi⁵.

Tarixshunos olim va tarjimon Y.Bregel asarning tarjimasi haqida o‘z fikrlarini so‘zboshida quyidagicha bildirgan: “Munis va Ogahiy asarlari mumtoz fors va chig‘atoy

⁵ Xalliyeva G., Adambayeva N. Ogahiy ijodining Amerikada o‘rganilishi. «Muhammad Rizo Ogahiyning O‘zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o‘rni» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B.181.



tilida bitilganidan tarjima jarayonida bir qancha muammolarni hal qilishimizga to'g'ri keldi. “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asar hisoblanadi, biroq asarni umumiy mutolaa uchun maqsad qilingan. Shuningdek, asar hukmdorlar talabiga binoan yaratilib, ularga bag'ishlangan va shajaraviy xronologik xususiyati jihatidan bu holat adabiy me'yorlarga ko'ra norma hisoblangan. Munis va Ogahiy zamondoshlariga tushunarli bo'lgan badiiy san'atlar zamonaviy kitobxonlarga – nafaqat g'arbliklarga, balki hozirgi kunda markaziy osiyoliklarga ham aynan ko'zlangan (yoki hech qanday) mazmunni anglatmaydi. Oxir oqibatda ezma va g'aliz tarjima yuzaga keladi”⁶.

Bu xususta amerikalik tarixchi Allen J.Frank o'z fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: “... Xiva saroyi haqida Munis va Ogahiy tomonidan berilgan original ma'lumotlarning ko'pligi asarni beqiyos manbaga aylantirdi. Asarning tarjima sifati – benuqsondir. Asar tarjimasidagi ingliz tili idiomatikdir, shu bilan birga, asl chig'atoy tilining ta'mi yaqqol namoyon bo'ladi va ko'plab badiiy san'atlar, Munis va Ogahiy uslubiga xos bo'yoqdor uslubiy bezaklar, ayniqsa, ko'pchiligi metaforali birliklarning Bregel tomonidan tarjima matnida tushirib qoldirilganligidan mamnunmiz”⁷. Dastlabki holatda, hukmdorlarning tasviri berilgan parchalar tarjima tiliga to'la-to'kisligicha o'girilgan. Shu bois asliyatdagi saroy hukmdorlarining noan'anaviy tasviri ifodalanishining tarjima tilida aks etilishiga e'tibor qaratsak:

Asliyatda: “Hazrat xoqoni a'zam va sultoni olam, al-muxtas bi inoyot al-malik al-mustaon Abu-l-muzaffar val-mansur Abu-l-fat Eltuzar Muhammad Baxodirxon xaladdalloxu mulkahu va sultonahu va afoza alalolamin barrahu va ehsonahuning zoti xujasta sifoti inoyoti ilohiy bila orasta va fazoili nomutanohiy bila piyrosta bo'lub, salotini oliymakom va xavokini gardunihtishomdin mumtozdur. Har ra'yekim, lavhi xotirida naksh tutsa, nusxai taqdirga muvofiq va har ishkim, zuhurga yetkursa, maqbuli xaloyikdur”. (FI, 36)

⁶ Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Rizā Mīrāb. *Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm/ Transl. from Chaghatay and annotated by Yu.Bregel.* – Leiden, 1999. – P.lviii.

⁷ Allen J. Frank. *Firdaws al-Iqbal: History of Khorezm by Shir Muhammad Mirab Munis.* – Leiden, E.J.Brill, 1999. – P.718.



Tarjimada: “The felicitous person of his majesty, the greatest khagan and the sultan of the world, honored by the favors of the Lord whose help is sought, victorious and triumphant, the conqueror, Eltüzer Muhammad Bahadur Khan (may God perpetuate his kingdom and reign, and may he shower his charity and benevolence upon all creatures!), is adorned with divine gifts and decorated with innumerable virtues, and he is eminent among the sublime sultans and the magnificent khaqans. Every thought which he carves on the tablet of his mind conforms to the divine decree, and every action which he performs is agreeable to [God’s] creatures”.

Tarixiy asarning kirish qismida tarjimon tomonidan berilgan tafsilotlarga mos holatda dastlabki o‘rinda keltirilgan hukmdor tasvirininig Munis va Ogahiy uslubiga xos ifodalanishi tarjimon tomonidan birinchi marotaba shunday holatda tarjima matnida berilishi aytib o‘tilgandi. Shunisi qiziqki, hukmdorlardan Eltuzarxon va Abulg‘ozi Bahodirxonga mansub tasvirda asar tarjimasining keyingi yana boshqa o‘rinlarida ham bunday ta’rif-u sifatlashga kitobxon duch keladi:

Asliyatda: “hazrat sultoni sohibqiron, xalifat ud-davron, zubdat as- salotini olam, kudvat al-xavokini muazzam al-mansur bi nusrat al-malik al-mustaon Abulg‘ozi Muhammadrahim Bahodirxon xaladallohu mulkahu va sultonaxu va afoza ala al-olamin barrxu va ehsonaxu ning valodati xumoyuni bila olam shabistoni ravshan va jahon xoristorrni gulshan bo‘ldi”. (110)

Tarjimada: “... of his imperial majesty, the sultan, caliph of the ages, cream of the sultans of the world, exemplar of the great khaqans, made victorious by the Lord whose help is sought, Abu'l-Ghazi Muhammad Rahim Bahadur Khan (may God make his kingdom and sovereignty endure forever, and may he abundantly provide (185) his charity and benevolence to all creatures!), the world's dark night became bright, and its bed of thorns became a rosegarden”. (FI, 78)

Yuqorida keltirilgan misollardan tarjima matni asliyatga sintaktik va stilistik jihatdan adekvat tarzda o‘girilgan deb hisoblasak yanglishmagan bo‘lamiz. Buning natijasida pragmatik tarjima ham yuzaga kelganligining guvohi bo‘lamiz. Bu esa



tarjimonning nafaqat tarixchi, balki sharq mumtoz adabiyoti borasida chuqur bilim va keng dunyoqarash egasi ekanligining isbotidir. Shuni ham ta'kidlash joizki, asliyat tilining nafisligini tarjimada saqlab qolishda yaqindan o'z fikrlari va ko'magini ayamagan professor Eleazar Birnbaumni Y.Bregel hurmat bilan esga olib o'tadi. Shuningdek, Y.Bregel asar tarjimasini oxiriga yetkazishda E.Birnbaum ko'maklasha olmaganligi sababidan professor Devin Deviz asarning Munis qalamiga mansub muqaddima va asarning Ogahiy tomonidan yozilgan qismlarini tarjimasida ko'maklashganligini va bu olimlarga o'z minnatdorchiligini ifodalaydi⁸.

Hajm va asliyat tili murakkabliklari sababidan tarjima jarayonida stereotip, takroriy tasvirlar boshqa o'rinlarda butkul olib tashlanadi. Ayniqsa, bunday qisqartirilgan bezakli parchalar asar tarjimasida, odatda, xonning harbiy harakatlari yoki shikordan qaytish jarayonlari tasviri xon nomining ulug'lovchi sifatlashlar bilan ifodalanganligining guvohi bo'lamiz. Abulg'ozī Bahodirxonning Orol yurushiga o'tlanayotgan tasvirini misol keltirishimiz joiz: "... hazrat xidevi komkori dushmanshikor va shaxriyori nomdori nusratshior, sarvari salotin, sardaftari xavoqin, mazhari altofi ilohiy va mazhari e'tof nomutanohiy, qomei asosi zulmu tug'yon, nosibi livoi amnu omon, al-muxtas bi avotif al-malik al-mustaon muizz ud-davlat va-s-saltanat Adu-l-muzaffar va-l-mansur Abulg'ozī Muhammadrahim Bahodirxon". (FI, 302). Asar tarjimasida rang-barang uslubda tasvirlangan mubolag'ali bunday tariff-u tavsifga ega sifatlashni tarjimon "his majesty Muhammad Rahim Bahadur" (FI, 301) tarzida oddiygina tushuntirish orqali ifodalagan va tarjimini umumlashtirishni ma'qul topgan.

Y.Bregel asarning uslubi borasida o'z fikrlarini bildirib, rus olimi P.P.Ivanovning "asar nihoyatda jimjimador, arabiy-forsiy iboralarga, metaforalarga to'la tarzda bitilgan" degan qarashlarini biroz mubolag'ali deb hisoblaydi. Olimning fikricha, Munis va Ogahiyning bayon uslubi sinkretik (aralash) xususiyatga ega. Mualliflar ayrim an'anaviy tasvirlar: harbiy yurishlar, shohlarga xos jihatlarni yoritishda murakkab istioraviy bayon

⁸ Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Rizā Mīrāb. Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm/ Transl. from Chaghatay and annotated by Yu.Bregel. – Leiden, 1999. – P.LXIV.



uslubidan, boshqa tasvirlarda oddiy uslubdan foydalanishgan⁹. Tarixchi tarjimonning bunday deyishiga sabab, boshqa manbalarda asar yozilishida xon Abulg'ozil Muhammadrahim Bahodirxon asar avom va akobirga birdek tushunarli sodda turkiyda yozilishi va hattoki, besh yashar bola ham uni mag'zini anglab yetishi kerakligiga xohish bildirganligi ko'rsatib o'tilgan¹⁰. Biroq Munis asarni saroy hashamlariga hamohang tarzda ham nasriy, ham nazmiy jimjimador badiiy san'atlar bilan bezatilishiga xon farmonini asos qilib oladi.

“Firdavs ul-iqbol” prozaik asar bo'lsa ham, unda o'rni bilan rivoyatlar, she'riy parchalar, xalq maqollari va ibratli so'zlar berib boriladiki, bu ham uning adabiy-tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi. Asarda ma'lum bir davriy jarayonni ko'rsatib berishda, voqelikni badiiy ifodalashda, nazmiy parchalar muhim o'rin egallaydi¹¹. Umuman, harbiy mojarolar talqiniga bag'ishlangan she'rlarni alohida mustaqil nazmiy asar deb hisoblash mumkin bo'lsa ham, ular asarning umumiy g'oyasini to'ldirishga, mukammallashtirishga xizmat qilishi bilan umummatnning ajralmas bo'lagidir.

Nasrning nazm bilan keltirilishi “Firdavs ul-iqbol” asarining uslub jihatini namoyon etuvchi muhim badiiy xususiyati hisoblanadi. Turli o'lchamdagi 767 ta nazmiy parchalarni o'z ichiga oladi. Son jihatdan asarning nazmiy qismi mualliflar qalamiga teng taqsimlanmaydi. “Firdavs ul-iqbol”dagi she'riy matnlar janr xususiyatlariga ko'ra turlichadir. Munis hajmi 2915 misradan iborat 683 ta she'riy parchani beradi. Asarning Ogahiy yozgan qismi esa 514 misradan iborat 84 ta sher'iy parchani tashkil etadi; asarning Munis qalamiga mansub she'riy parchalar asar hajmining 18% ni tashkil etsa, Ogahiy yozgan qismida esa asarning 10% ni o'z ichiga oladi. Taxminiy hisoblaganda bu butun bir tarixiy asar hajmining 16% ni tashkil etishini tarjimon qayd etib o'tadi.

⁹ Иванов П.П. Хивинские хроники XIX в. Муниса-Агехи как источник по истории туркмен // Материалы по истории туркмен и Туркмении. – Т.II. – М.-Л., 1938. – С.23-28.

¹⁰ Abulg'ozil Bahodirxon. I-II. Aboul-Ghazi Behadour Khan, Hietoire des Mogols et des Tatares, publiee, traduite et annotee par le Baron Desmaisons, t.I: Texte, St.Peterberg, 1871; t.II:Traduction, ST. – Peterburg, 1874.

¹¹ Ro'ziyev E. “Firdavs u-l-iqbol”dagi nazmiy parchalar va ularning badiiyatiga doir ayrim mulohazalar. «Muhammad Rizo Ogahiyning O'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B.213.



Aksariyat hollarda nasriy matn bilan birgalikda keltirilgan she'riy parchalar hech qanday tarixiy yoki boshqa muhim ahamiyatga ega bo'lmagan sof stilistik maqsadlarga xizmat qilishini va ko'pincha ular shunchaki nasrdan oldin aytilgan gaplarni qofiyali shaklda takrorlashini mutarjim sabab qilib ko'rsatadi¹². Tarjimon asar tarjimasida asl nusxaning barcha stilistik bezaklarini saqlab qolishni tarjima jarayonida maqsad qilsa, tarjima matnni asliyatga nisbatan nomutanosib darajada hajman katta bo'lishini ta'kidlab o'tgan; tarixiy asarning tarixiy mazmuniga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydigan nazmiy satrlar to'liq berilgan taqdirda tarjima matni ko'plab stilistik detallar bilan bachkanalashadi va bunday vaziyatlarni tafsilotlar bilan qo'shimcha tushuntirishlar esa tarjima matniga ortiqcha yuk bo'lishini anglagan holda, ahamiyatsiz deb hisoblagan badiiy-estetik boyoqdor matn qismlarini tarjimada bermaslikka qaror etadi. Bularning barchasi tarjimoni nafaqat keng kitobxon, balki mutaxassis mutolaasida ham qiyinchilik tug'ilishi mumkinligini sabab qiladi. Shu bois asardagi ba'zi nazmiy satrlarni tarjima matnida tushirib qoldirilgan holda qavsda faqat she'riy janrning nomi ko'rsatib o'tilganligining guvohi bo'lamiz:

Asliyat: “... ul quvvat qaydakim bu yanglig' qattig' yo'lg'a qadam urg'oyman.

Masnaviy:

Pashsha kimu fil yuki toqati,

Zarra kimu mehri munir ulfati.

Sham'g'a parvona o'zin begumon,

Anglaki yetkurmoqu kuymak hamon”. (FI, 397)

Ushbu keltirilgan misolda Ogahiy katta hajmdagi tarixiy asarni xalqqa ma'qul tarzda nihoyalash mas'uliyatini ifodalovchi nazmiy satrlari, yuqorida aytib o'tganimizdek, tarjima matnida tushirib qoldirilgan: “... where would I find the power to set out on such a difficult road? [Mathnavi]” (FI, 407) kabi shaklda keltirilgan.

Darhaqiqat, tarixiy asar tarjimasida bugungi kun kitobxonini XIX asrda O'rta Osiyoda adabiy hayotning “turg'un” yoki “orqada qolgan” degan gumonlariga maqbul javob olishiga xizmat qilishi kerak edi. Asar tarjimasida nafaqat Markaziy Osiyo hududida, balki

¹² Ko'rsatilgan manba. – P.lix.



butun dunyo ilm-fani doirasida birinchilar qatoriga qo'yildi. Uzoq tanaffusdan keyin tarixiy asar tarjimasiga qayta kirishgan tarjimon asardagi izohlar uchun yana ikki yil sarfladi. Y.Bregelning keng qamrovli va ta'sirchan chuqur izohlari nashr etilgan manbalarni to'liq o'rganish asosida mintaqaning tarixiy geografiyasi, etnografiyasi va shaxslari haqida batafsil ma'lumot beruvchi manba sanaladi¹³. Albatta, annotatsiya, geografik nomlar ko'rsatkichi va xaritalar Xorazm tarixiy geografiyasiga qo'shgan katta hissadir. Turk tarix jamiyatining asoschisi, tarixchi olim Erdogan Mersil Y.Bregelning tarixiy asar tarjimasiga quyidagicha fikr bildirgan: "Prof. Dr. Bregel "Firdavs ul-iqbol" asarini ingliz tiliga tarjima qilishda asar muqaddimasi, eslatmalari va bibliografiyasi bilan u ilmiy tadqiqot qanday bo'lishi kerakligining yaxshi namunasini ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, XVIII-XIX asrlarda Xorazm va O'rta Osiyo tarixi bo'yicha tadqiqot olib boradiganlar, albatta, "Firdavs ul-iqbol" asarining ushbu inglizcha tarjimasini ko'rishlari kerak¹⁴". Y.Bregelning chuqur bilimi va izlanishlari nafaqat Markaziy Osiyo va islom olami, shu bilan birga, Xorazm tarixini butun dunyoga namoyon etishda muhim yutuq sanaladi, uning zehni va tarjima mahorati jahon adabiyoti xazinasini boyitishda vosita bo'ladi.

¹³ Muhammed B.Ç. Firdevsü'l-İkbâl ve Hive Hanlığı Tarihi Açısından Değeri. – Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Yönetim Kurulunun 09.03.2017 tarihli ve 736/12 sayılı kararı gereği e-kitap olarak yayımlanmıştır. – Ankara, 2022. – S.50.

¹⁴ <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/1546632>